

INGLIZ BADIY ASARLARIDA METAFORALARNING KOGNITIV-STILISTIK XUSUSIYATLARI

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar
fakulteti o`qituvchisi M.T. Gapparova
4-kurs talabasi Sh.O'. Himmatova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz badiiy asarlarida ma'no ko'chish turlaridan biri bo'lgan metaforaning ahamiyati va o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, barcha fikrlar misollar orqali tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar: metafora, metonimiya, ma'no ko'chish, simile, o'xshatish, Arastu, emotsionallik, hissiy bo'yoqdorlik, stilistik vositalar.

Abstract: This article discusses the importance and role of metaphor, which is one of the types of meaning transfer in English literary works. Also, all points are analyzed through examples.

Key words: metaphor, metonymy, transfer of meaning, simile, analogy, Aristotle, emotionality, emotional coloring, stylistic devices.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и роль метафоры, которая является одним из видов передачи смысла, в английских литературных произведениях. Также все моменты разбираются на примерах.

Ключевые слова: метафора, метонимия, передача смысла, сравнение, аналогия, Аристотель, эмоциональность, эмоциональная окраска, стилистические приемы.

Stilistik vositalar badiiy adabiyotda emotsionallikni namoyon qiladi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, sifatlash, jonlantirish, o'xshatish, parafrazalar ma'no ko'chish turlari hisoblanadi. Kundalik muloqatda ko'p duch keladigan "qozonning qulog'i", "oltin kuz" "shirin so'z" kabi iboralar metaforaga misoldir. Bu so'zlarning ma'nosi ko'chgan, aslida quloq so'zi inson va hayvonga nisbatan ishlatiladi, chunki quloq tana a'zosi, vazifasi esa eshitish. "Qozonning qulog'i" deganimizda o'xshashlik bor, qozonning ikkita ushlaydigan dastagi quloqqa o'xshatilyapti va ma'no ko'chyapti. Qolgan misollarda ham xuddi shu kabi oltin narsaga ya'ni uzuk, zirakka nisbatan, shirin so'zi ham taomga nisbatan mazali ma'nosida ishlatiladi. Bir narsa yoki harakatning xususiyatlarini boshqa bir narsaga o'tkazish, o'xshatish badiiy adabiyotda metafora deb ataladi. Metafora tushunchasi fanga kiritilgandan buyon, bu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek Arastu bu boroda o'zining "Ritorika" asarida quyidagilarni keltiradi: "Metafora yuksak darajadagi aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi"[1]. Arastu aytganidek, metaforadan to'g'ri foydalanish nutq ko'rkiga ko'rk qo'shadi,

jumlamizni yanada emotsionallik bilan boyitadi, xususan, o'zbek adabiyotida shoirlar tomonidan keng foydalanadigan "lablari g'uncha", "qoshlari kamon", "sochlari sumbul", "tishlari duru inju" kabi iboralar metaforaga yaqqol misoldir, bular shoirning she'rlariga joziba qo'shadi.

Yozuvchilar va shoirlar metaforani adabiyot uchun o'ta zarur stilistik vosita sifatida qarashadi. Chunki ular o'z asalariga badiiy bo'yoq berish uchun yoki bo'yoqdorlikni, emotsionallikni oshirish uchun metaforadan juda ko'p foydalanishadi. Ba'zida esa metafora butun bir gap uchun asosiy rol bo'lib kelishi, agar gapda metafora olib tashlansa, matn o'z ma'nosi yo'qotishi mumkin. Albatta bunday holatga ingliz adabiyotlarida ham, she'riyatida ham duch kelamiz, xususan, Maya Angelouning "Still I rise" she'ridagi quyidagi misralarni olaylik.

You may write me down in history
With your **bitter, twisted lies**,
You may tread me in the very dirt
But still, **like dust**, I'll rise.

She'rdagi **bitter, twisted lies** jumlasida metaforaning yaqqol namunasi sifatida qo'llanilgan, yolg'on so'ziga nisbatan achchiq va o'ralgan so'zlari ishlatilgan. Yuqorida berilgan misollardagi kabi yolg'on **achchiq (bitter)** bo'la olmaydi, chunki u yegulik emaski biz uni tatib ko'rib shirin yoki achchiq deyolsak. **O'ralgan (twisted)** so'zi ham xuddi shunday, yolg'on ko'zga ko'rinadigan, qo'lga olinadigan narsa emaski uni o'rab bo'lsa. Metaforadan unumli foydalanish she'rning jozibasini, hissiy bo'yoqdorligini yanada oshirmoqda. Endi **like dust** iborasiga e'tibor qaratsak, bunda ham o'xshatish bor, lekin bu metafora emas. Ingliz tilida biror narsani **like, as, as like, such as, as if** so'zlari yordamida o'xshatishdan foydalanilsa bu metafora emas balki **simile** bo'ladi. Demak ko'rib turganingizdek, o'xshatishning ham bir biridan farqi, ya'ni turlari mavjud ekan.

Yoki barcha kitobsevarlar tomonidan sevib o'qilgan Antuan de Sent-Eksyuperining 'Kichkina Shahzoda' asariga e'tibor qarataylik.

But seeds are invisible. **They sleep deep in the heart of the earth's darkness, until some one among them is seized with the desire to awaken.** Then this little seed will stretch itself and begin, **timidly at first, to push a charming little sprig inoffensively upward toward the sun.** If it is only a sprout of radish or the sprig of a rose-bush, one would let it grow wherever it might wish. But when it is a bad plant, one must destroy it as soon as possible, the very first instant that one recognises it.[2]

Quyidagi berilgan misolda birgina urug'ning unib chiqish jarayonini metaforadan ajoyib usulda foydalanib yoritganligiga guvoh bo'lamiz. **Ular yer zulmatining qalbida chuqur uxlaydilar, toki ulardan birlarida uyg'onish istagi paydo bo'lmaguncha.** Aslida qalb insonga berilgan oliy ne'mat, lekin yozuvchi bu jumlada yerning ostini inson qalbiga taqqoslamoqda, inson qalbida eng ezgu amallar,

orzular unib chiqqani kabi, ona yer bag'rida ham har bir urug' donasi nish urib, osmon yuzini ko'radi. Keyingi metaforada esa **chuqur** so'zi aslida chuqurlikka nisbatan ishlatilsa, bu yerda **uyquga** nisbatan, ya'ni uzoq muddatga degan ma'noda ishlatilmoqda. Endi ular yer zulmatining qalbida chuqur uxlaydilar, toki ulardan birlarida uyg'onish istagi paydo bo'lmaguncha jumllarining o'rniga, urug'lar yer ostida uzoq muddat unib chiqishga tayyorgalik ko'radi jumlasini o'qigan har bir kitobsevarda qandaydir g'alislilik paydo bo'lishi aniq. Ko'rib turganingizdek, badiiy adabiyotda stilistik vositalarning o'rni juda muhimdir. Tahlilni davom ettirar ekanmiz, **uyg'onish** so'zini urug'ga nisbatan ishlatilganligini ko'ramiz va albatta bu ham metaforaga misoldir. Bahor o'zi asli uyg'onish, yangilanish faslidir. **Keyin bu kichkina urug' o'zini cho'zadi va avvaliga qo'rqibgina maftunkor kichkina novdani quyosh tomon yuqoriga ko'tara boshlaydi.** Bu gap tahlilida yozuvchining qanchalik so'zga ustaligini hamda metaforadan mohirona foydalanganligiga, xususan, inson shaxsiyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bo'lgan qo'rqqoqlikni o'simlikka nisbatan tasvirlanganligini ko'ramiz.

Birgina metaforaning tahlilini ko'rib chiqar ekanmiz, uning gapdagi o'rni hamda jumlaning mazmunini kitobsevarning qalbiga yetkazish uchun naqadar muhim rol kasb etishining guvohi bo'lamiz. Bu kabi stilistik vositalar faqatgina badiiy adabiyot yoki she'rlar uchungina bo'lib qolmasdan, balki kundalik nutqimizda ham o'z o'rniga egadir. Ba'zida so'zga ustaligimizdan, ba'zida fikrimizni aniq yoki tushunarli yetkazish uchun, ba'zida esa shunchaki bu kabi stilistik vositalar nutqimizda ibora bo'lib qolganligi uchun deyarli har kuni bu vositalarni ishlatishimizning guvohi bo'lamiz. Har qanday tilni o'rganar ekanmiz yoki tahlil qilar ekanmiz bu tilning naqadar jozibador ekanligini anglab boraveramiz.

Adabiyotlar:

1. Maya Angelou «Still I Rise».
2. Antoine De Saint-Exupery «The Little Prince».